

OILAVIY NIZOLARNI MEDIATSIYA ORQALI HAL ETISH

Ashuroxunova Diyoraxon

Master's Student in International Arbitration and Dispute Resolution

University of World Economy and Diplomacy

DOI: 10.5281/zenodo.22806605

Received: 10 September 2026 | Accepted: 16 September 2026 | Published: 17 September 2026

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada oilaning jamiyatdagi o'ri, oilaviy nizolarni hal etishning muqobil va samarali vositasi sifatida mediatsiya institutining huquqiy tabiati, mohiyati hamda amaliy ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda oilaviy mediatsiyaning boshqa mediatsiya turlaridan farqli xususiyatlari, uni qo'llash predmeti va huquqiy chegaralari o'rganilgan.

KALIT SO'ZLAR:

oila huquqi, mediatsiya, oilaviy nizolar, nizolarni muqobil hal etish usullari, nikohni bekor qilish, bolaning ustuvor manfaatlar, kelishuv, mediator, mediatsiya usullari.

KIRISH.

Oila bu muqaddas hisoblanadi, uning vujudga kelishi va bekor bo'lishi muhim qonuniy jarayonlardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 76-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi, nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi, davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi kafolatlanganligi belgilab qo'yilgan¹.

Yurtimizda oilani mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur normalar oilaviy munosabatlarni tartibga solishda shunday huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladiki, u shaxs manfaatlarini maksimal darajada ta'minlash, har bir oila a'zosining munosib turmush kechirishi va erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, bolalarni har tomonlama barkamol va uyg'un rivojlangan jamiyat a'zolari etib tarbiyalashni ko'zda tutadi.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi oilani jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etib, uni davlat va jamiyat tomonidan himoya qilish zarurligini belgiladi². Mazkur norma xalqaro huquq tizimida oilani mustaqil ijtimoiy institut sifatida tan olishning fundamental asosini yaratdi. Oila nafaqat shaxsning tabiiy yashash muhiti, balki avlodlar davomiyligi, ijtimoiy qadriyatlar, ma'naviy me'yorlar va madaniy merosning uzatilishini ta'minlovchi muhim institut sifatida baholanadi.

Shu sababli oilani huquqiy jihatdan himoya qilish inson huquqlarini ta'minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Keyingi yillarda oila sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar oilalarning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan bo'lgan oilaviy nizolarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda nizolar prevensiyasi mutaxassislarining mediativ ko'nikmalarni o'zlashtirganiga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Ijtimoiy, fuqarolik va huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudgacha hal etish mexanizmi sifatida mediatsiya, ya'ni maxsus vositachi — mediator ishtirokida nizolashuvchi tomonlarni suddan tashqari tartibda yarashtirish usullari xorijiy davlatlar tajribasida uzoq yillardan beri qo'llanib kelinadi. Endilikda mediatsiya milliy qonunchilikdan ham munosib o'rin egalladi³.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot predmetini oilaviy nizolarni mediatsiya orqali hal etishga oid huquqiy munosabatlar tashkil etadi. Tadqiqotning normativ-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi (xususan, 44- va 76-moddalari), "Mediatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, shuningdek 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kabi xalqaro-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Tadqiqotda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining nikohdan ajratish bilan bog'liq ishlar bo'yicha qabul qilingan qarorlari, sud amaliyoti materiallari hamda mediatsiya va oilaviy huquq sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy ishlanmalari material sifatida foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi umumilmiy va maxsus-huquqiy tadqiqot metodlarining uyg'unligiga asoslangan. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini yoritishda formal-yuridik metoddan; oilaviy mediatsiyani boshqa mediatsiya turlari bilan solishtirishda qiyosiy-huquqiy metoddan; oilaviy nizolarni hal etish jarayonining bosqichlari va o'zaro bog'liqligini o'rganishda tizimli-mantiqiy metoddan; qonunchilik normalari va sud amaliyotidagi yondashuvlarni umumlashtirishda tahlil va sintez metodlaridan, shuningdek induktiv-deduktiv usullardan foydalanildi. Ushbu metodlar majmuasi oilaviy mediatsiya institutini huquqiy va amaliy jihatdan har tomonlama, ilmiy asoslangan tarzda yoritish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Oilaviy munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning nozik va ishonchga tayanishi nizolarni hal etish jarayonida qo'llaniladigan himoya shakl

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

² Universal Declaration of Human Rights. (1948). United Nations. <https://www.un.org>

³ "O'zbekistonda mediatsiya sohasida huquqiy islohotlarni amalga oshirishning muammolari va imkoniyatlari," *Telegra.ph*, 2023, <https://telegra.ph/Ozbekistonda-mediatsiya-sohasida-huquqiy-islohotlarni-amalga-oshirishning-muammolari-va-imkoniyatlari-09-29>

va usullarining alohida yondashuvni talab etishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mediatsiya oilaviy nizolarni hal etishning muqobil va samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mediatsiya — bu nizolashayotgan tomonlar o'rtasida mustaqil va xolis vositachi ishtirokida olib boriladigan muqobil nizolarni hal etish jarayoni bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Mazkur jarayonda tomonlar o'zaro muzokaralar orqali har ikki tomon manfaatlarini hisobga olgan holda o'zaro maqbul kelishuvga erishadilar. Shu bilan birga, mediatsiya nizoning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularni yumshatish yoki to'liq bartaraf etishga xizmat qilib, oilaviy munosabatlarni saqlab qolish va mustahkamlashga ko'maklashadi.

Shu tariqa, oilaviy huquqiy munosabatlarga nisbatan nizoli vaziyatlarda tomonlar mediatorga murojaat qilish orqali o'zaro kelishuv asosida ichki oilaviy masalalarni hal etadilar. Bizning fikrimizcha, bu nafaqat mediatsiya tartibini qo'llash mumkinligini, balki uni qo'llash zarurligini ham ko'rsatadi. Chunki mavjud nizolarni hal etish va shu orqali kelajakdagi nizolarning oldini olish oilani mustahkamlash va saqlab qolishni ta'minlaydi, ya'ni oilaviy huquq tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Oilaviy mediatsiya o'z xususiyatlari bilan boshqa mediatsiya turlaridan farq qiladi. Tadbirkorlik faoliyati yoki yakka mehnat nizolaridan kelib chiqadigan nizolarda taraflar asosan begona shaxslar hisoblansa, oilaviy mediatsiya ishtirokchilari esa qarindoshlar yoki er-xotinlardir. Shuningdek, ushbu turdagi nizolarda tarfalar ikki va undan ortiq ham bo'lishi mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarda taraflar psixologik jihatdan tinch gaplashib olishga tayyor emaslar. Munosabatlarning tugatilishi taraflarning ruhiy stressga tushishiga sabab bo'ladi. Aynan shu xolatda mediatorni xis-tuyg'ular bilan ishlashi tegishli malaka talab qiladi. Asosiy e'tiborni kim haq yoki nohaqligiga emas, balki oilaviy nizoni hal etish yechimlarini topish va munosabatlarga qaratish lozim.

Meditsiyani nikohni belov qilish jarayonida qo'llashni kengaytirish orqali juda katta afzalliklarga erishishimiz mumkin. Birinchidan, sud yuklamasini kamaytiradi hamda nizoni tezroq hal bo'lishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, meditsiyani qo'llash orqali bolalar manfaatini suddan ko'ra samaraliroq himoya qila olamiz. Sud jarayonida bolalarda psixologik travmalar paydo bo'lishini ham oldini olishimiz mumkin. Ayniqsa, bola manfaatlariga daxldor nizolarda mediatorlar tarkibida kamida bitta bola psixologiyasi bo'yicha malakali mutaxassisning bo'lishi nizoni har tomonlama baholash va bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Oila kodeksining 76-moddasida "Ota-ona boladan alohida yashaydigan otaning (onaning) ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida yozma ravishda kelishuv

tuzishga haqlidir. Bu boradagi nizo ota-onaning (yoki ularidan birining) talabiga binoan sudga murojaat qilinguniga qadar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilinishi mumkin", deb belgilangan.

Uchinchidan, mediatsiya nizoni dushmanlikka, o'zaro adovatga emas, balki kelishuv va hamkorlikka yo'naltiradi. Uchinchil shaxslar aralashuviz, o'zaro hamkorlikka masalani hal qilib olishga imkon beradi. Eng asosiy, ustuvor vazifamiz esa oilalarni saqlab qolish, ularning yarashuvini, tinch va baxtli hayotini ta'minlashdan iborat.

Oilaviy nizolarda mediatsiyani qo'llashning huquqiy chegaralari va predmeti aniqlashtirilib, mediatsiya orqali hal etilishi mumkin bo'lgan masalalar, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, voyaga yetmagan bolalar bilan mu-loqot tartibini belgilash, aliment majburiyatlari va tarbiya masalalari ilmiy mezonlar asosida tizimlashtirilishi lozim. Bu esa oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiyadan foydalanishning aniq va barqaror huquqiy doirasini belgilash imkonini berdi.

Oila kodeksining 44-moddasiga muvofiq, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish jarayonida er-xotin sudga muayyan masalalar yuzasidan o'zaro kelishuv taqdim etish huquqiga ega. Mazkur kelishuvda, avvalo, nikohdan ajratilgandan so'ng voyaga yetmagan bolalarning qaysi ota-ona bilan yashashi, voyaga yetmagan bolalarni va mehnatga layoqatsiz hamda moddiy yordamga muhtoj bo'lgan er yoki xotinni ta'minlash uchun to'lanadigan mablag'larning tartibi va miqdori, shuningdek er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish masalalari nazarda tutilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining nikohdan ajratish bilan bog'liq ishlar bo'yicha tushuntirishlarida sudlarga ushbu masalalarni ko'rib chiqishda taraflarning kelishuvi mavjudligiga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan. Plenum qaroriga ko'ra, agar bunday kelishuv qonun talablariga zid bo'lmasa hamda voyaga yetmagan bolalarning manfaatlariga putur yetkazmasa, sud uni inobatga olishi va qaror chiqarishda asos sifatida qabul qilishi lozim. Bu yondashuv sud ishlarini soddalashtirish bilan birga, taraflar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga xizmat qiladi⁴.

Meditsiyaning predmeti nikoh-oila munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish hisoblanadi. Mediatsiya nikoh shartnomasidan, voyaga yetmagan farzandlar bo'yicha alimentlik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda va ajrashishda qo'llanilishi mumkin⁵.

Oilaviy nizolarda mediatsiya qo'llash doirasini, mediatsiyaning aniq obyektini aniqlab olish mediatorning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mediatsiyaning aynan qanday maqsadga qaratilganini aniqlab olish mediatorga nizoni keskinliklarsiz hal etishga, taraflarning pozitsiyasini va aniq manfaatlarini aniqlab olishga yordam beradi. Oilaviy nizolarda mediatsiya oilalarning xususiyatiga qarab ham turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, yosh oilalarda nis-

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi. (2011-yil 20-iyul). *Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida qaror* (№ 6).

⁵ Masadikov, S. M. (2008). *Sushchnost mediatsii i problemy ee pravovogo regulirovaniya v Respublike Uzbekistan* (Avtoreferat dissertatsii kandidata yuridicheskikh nauk). Toshkent: Tashkentский gosudarstvennyy yuridicheskiy institut.

batan yengilroq kechadi, bunda asosiy e'tibor tomonlarni yarashtirishga, munosabatlarni tiklashga qaratiladi. Uzoq muddat davomida birga yashagan er va xotin o'rtasidagi nikohdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan mediatsiyada esa bir-muncha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Sababi, bunday oilalarda o'zaro umumiy mol-mulk bilan bog'liq masalalar, voyaga yetmagan farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar va keskinlik bo'lishi mumkin. Ajrim ikkalar taraf uchun ham kuchli ruhiy bosim hisoblanadi, bunday vaziyatda ziddiyatli va keskin vaziyatlar bo'lishi tabiiy holat. Bunday mediatsiya jarayonida mediator taraflarni diqqat bilan tinglashi (active listening), reframing, kokus kabi uslublardan foydalanishi lozim,

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiya institutining nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, oilaviy mediatsiya o'z ishtirokchilari tarkibi qarindoshlar, er-xotinlardan iborat ekanligi munosabatlarning yuqori darajadagi hissiy-psixologik keskinligi hamda ikki va undan ortiq tomonning ishtirok etishi mumkinligi bilan boshqa mediatsiya turlaridan tubdan farq qiladi, bu esa mediatorlardan alohida kasbiy tayyorgarlik va his-tuyg'ular bilan ishlash ko'nikmalarini talab etadi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- mediatsiyani nikohni bekor qilish jarayonida keng qo'llash sudlarning ish yukini sezilarli darajada kamaytiradi va nizolarni operativ hal etishni ta'minlaydi;

- mediatsiya vositasida voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini sud tartibiga qaraganda samaraliroq himoya qilish, shuningdek bolalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik travmalarning oldini olish mumkin; bunda mediatorlar tarkibida bola psixologiyasi bo'yicha malakali mutaxassisning ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir;

- mediatsiya nizoni qarama-qarshilikka emas, balki tomonlarning o'zaro kelishuvi va hamkorligiga yo'naltirib, oilaviy munosabatlarni saqlab qolish yoki, ajrim muqarrar bo'lgan taqdirda ham, uni ziddiyatsiz yakunlashga xizmat qiladi;

- oilaviy nizolarda mediatsiyani qo'llash predmeti — xususan, umumiy mol-mulkni bo'lish, voyaga yetmagan bolalar bilan muloqot tartibi, aliment majburiyatlari va tarbiya masalalari — ilmiy mezonlar asosida aniq tizimlashtirilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oilaviy mediatsiya institutini yanada takomillashtirish, uni sud amaliyotiga kengroq tatbiq etish, shuningdek mediatorlarni oilaviy nizolar bo'yicha ixtisoslashtirilgan tarzda tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu, o'z navbatida, oilalarni mustahkamlash, ularning barqarorligini ta'minlash hamda bolalarning huquq va manfaatlarini to'liq himoya qilishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (607-I-son, 1998)
3. "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-482-son, 2018)
4. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948)

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumi "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida" qarori (№ 6, 2011)

6. Masadikov, S. M. Sushchnost mediatsii i problemy ee pravovogo regulirovaniya v Respublike Uzbekistan (2008).

Resolution of Family Disputes through Mediation

Ashurokhunova Diyoraxon

Master's Student in International Arbitration and Dispute Resolution

University of World Economy and Diplomacy

Abstract. This article examines the role of the family in society, as well as the legal nature, essence, and practical significance of mediation as an alternative and effective means of resolving family disputes. The study explores the distinctive features of family mediation compared to other types of mediation, its scope of application, and its legal limitations.

Keywords: family law, mediation, family disputes, alternative dispute resolution methods, divorce, the best interests of the child, settlement, mediator, mediation methods.

Разрешение семейных споров посредством медиации

Ашурокунова Дийорахон

Магистрант по специальности «Международный арбитраж и разрешение споров» Университет мировой экономики и дипломатии

Аннотация. В данной статье исследуется роль семьи в обществе, а также правовая природа, сущность и практическое значение института медиации как альтернативного и эффективного средства разрешения семейных споров. В исследовании рассматриваются особенности семейной медиации, отличающие её от других видов медиации, предмет её применения и правовые пределы.

Ключевые слова: семейное право, медиация, семейные споры, альтернативные способы разрешения споров, расторжение брака, наилучшие интересы ребёнка, соглашение, медиатор, методы медиации.